



## NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 18-oktabr

564-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

**Namangan viloyati hokimining 2024-yil 16-oktyabrda “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Kasalliklarni ambulator sharoitda davolashda dori vositalari xarajatlarini qoplash bo‘yicha reimpursatsiya dasturi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2024-yil 2-oktabrdagi 619-son qarori ijrosi to‘g‘risida”gi 481-6-0-Q/24-sonli qarori haqida**

Aholiga ambulator tibbiy yordam ko‘rsatish samaradorligini oshirish, sohaga bosqichma-bosqich davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlarini joriy etish hamda kasalliklarni davolashda dori vositalari xarajatlarini qoplash bo‘yicha reimpursatsiya dasturini joriy qilish hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Kasalliklarni ambulator sharoitda davolashda dori vositalari xarajatlarini qoplash bo‘yicha reimpursatsiya dasturi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2024-yil 2-oktabrdagi 619-son hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 16-oktyabrdagi 481-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

### QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 16-oktyabrdagi 481-6-0-Q/24-sonli qarori asos va amalda bajarish uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 2-oktyabrdagi 619-son qarori bilan quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sog‘liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlarini Sirdaryo viloyatida joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 12-noyabrdagi PQ-4890-son qaroriga asosan 2022-yildan Sirdaryo viloyatida;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston-2030” strategiyasini 2023-yilda sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 11-sentabrdagi PQ-300-son qaroriga asosan 2023-yil 1-iyuldan Toshkent shahrida aholining eng ko‘p murojaatlariga sabab bo‘lgan surunkali kasalliklar bilan dispanser nazoratida turgan bemorlarni reimpursatsiya dasturi doirasida 11 turdagi dori vositalari bilan ta‘minlash tizimi tajriba-sinov tariqasida yo‘lga qo‘yilganligi ma‘lumot uchun qabul qilinganligi;

quyidagilarni nazarda tutuvchi Kasalliklarni ambulator sharoitda davolashda dori vositalari xarajatlarini qoplash bo‘yicha reimpursatsiya dasturi to‘g‘risidagi nizom ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi:

shifokor tomonidan reimpursatsiya dasturi doirasida dori vositalarini tayinlash; shifokor tomonidan rasmiylashtirilgan elektron retsept asosida dorixonalar

tomonidan dori vositalarini bemorlarga bepul berish;

elektron retsept asosida dorixonalar tomonidan berilgan dori vositalari qiymatini Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan qoplash tartibi:

belgilanishicha:

shifokor tomonidan rasmiylashtirilgan elektron retsept bo‘yicha davlat tomonidan kafolatlangan tibbiy xizmatlar va dori vositalari paketiga kiritilgan dori vositalari bemorlarga dorixonalar tomonidan reimpursatsiya dasturi asosida bepul berilishi;

reimpursatsiya dasturi asosida beriladigan dori vositalari bo‘yicha dorixonalarning xarajatlari Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi (keyingi o‘rinlarda — Jamg‘arma) orqali qoplab berilishi. Bunda Jamg‘arma bilan dorixonalar o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnoma tuzilishi va

dorixonalarning xarajatlarini qoplash uchun to'lovlar g'aznachilik xizmati organlari orqali yuridik majburiyat rasmiylashtirilgan holda har oyda kamida bir marotaba moliyalashtirilishi;

reimbursatsiya dasturini amalga oshirishda bemor yoki uning qonuniy vakilining mobil telefon raqamiga yuboriladigan SMS-xabarlar bo'yicha xarajatlar reimbursatsiya dasturiga ajratilgan mablag'lar hisobidan qoplanishi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimning moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari – iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i A.Abdusalomov va tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari J.Raximov zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimi**



**A.Mansurov**